

Dilfuza Valievna Rasulova
Biznes va boshqaruv respublika
oliy maktabi kafedra mudiri, professor
Mirzayev Muzaffar Mahmudovich
ToshDSHI o'qituvchisi

“ABENOMIKA” ERISHGAN YUTUQ VA KAMCHILIKLARI HAMDA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Yaponiya mo'jizasi”ning muallifi bo'lgan Yaponiya 2010-yilga qadar dunyodagi eng rivojlangan ikkinchi iqtisodiyot edi. Ammo so'nggi bir necha yil ichida bir qator ichki va tashqi omillar natijasida iqtisodiyot o'z kuchini yo'qota boshladi. Savdoda salbiy belgilari qayd etilgan. Bunday sharoitda mamlakat bosh vaziri tashabbusi bilan boshlangan “Abenomika” yangi iqtisodiy islohotlar dasturi muhim ahamiyatga ega. Ushbu islohotlar Yaponiya iqtisodiyotini jonlantirish va yangilashga qaratilgan edi. Maqolada Abenomiksning afzalliklari va kamchiliklari yoritib berilgan.

Аннотация. В статье отмечается, что Япония, являясь автором «Японского чуда», была второй самой развитой экономикой мира до 2010 года. Но за последние несколько лет экономика начала терять свою силу в результате ряда внутренних и внешних факторов. Отмечаются отрицательные признаки в торговле. В этих обстоятельствах особо важным представляется программа новых экономических реформ под названием «Абэномика», которая была инициирована премьер-министром страны. Эти реформы были направлены на возрождение и обновление японской экономики. В статье выделяются преимущества и недостатки «Абэномикс».

Annotation. The article notes that Japan, as the author of the "Japanese Miracle," was the second most developed economy in the world until 2010. But over the past few years, the economy began to lose its strength as a result of a number of internal and external factors. Negative signs in trade are noted. In these circumstances, a program of new economic reforms called "Abenomika", which was initiated by the Prime Minister of the country, is especially important. These reforms were aimed at reviving and updating the Japanese economy. The article highlights the advantages and disadvantages of Abenomix.

Kalit so'zlar. Abenomika, Abenomikaning uch o'qi, agressiv monetar siyosat, egiluvchan fiskal siyosat, rag'batlantiruvchi moliyaviy vositalar, iqtisodiy o'sish strategiyasi.

Ключевые слова: Абеномика, Три направления в абеномике, Агрессивная монетарная политика, Фискальная политика, Гибкие финансовые инструменты, Стратегия экономического роста.

Key words: Abenomics, three axes of Abenomics, aggressive monetary policy, flexible fiscal policy, incentive financial instruments, strategy of economic growth.

Abenomika (yapon. アベノミクス) — neologizm bo`lib, 2012-yil dekabr oyidan boshlab Yaponiya Bosh vaziri Shindzo Abe tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatni tavsiflash uchun ishlatilmoqda. Shindzo Abe Bosh Vazir lavozimini 2007-yil sog`lig`i bilan bog`liq sabablarga ko`ra tark etgan bo`lib, 2012-dekabr oyida siyosatga Yaponiyani qudratli iqtisodiyotga aylantirish maqsadi bilan qaytib keldi. Bu neologizm Bosh vazirning familiyasi hamda “ekonomika” so`zlarini bir-biriga qo`shishdan hosil qilingan. Abenomika Yaponianing so`nggi bir necha o`n yillik stagnatsiya, ya`ni turg`unlik holatiga tushib qolgan iqtisodiyotini jonlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida qaralmoqda. Asosiy maqsad – 20 yillik deflyatsiyani Yaponiya Banki siyosatini keskin yumshatish hisobiga yo`q qilishdan iborat.

Abenomika siyosati doirasida “Abenomikaning uch o`qi” deb ataluvchi chora-tadbirlar dasturi mavjud bo`lib, ular quyidagilardan iborat (1-rasm):

1-O`Q. Qattiq monetar siyosat

Yaponiya Davlat obligatsiyalarining BOJ tomonidan sotib olinishi
2 yil ichida 2%li inflyatsiya darajasiga erishish

2-O`Q. Egiluvchan fiskal siyosat

Iste`mol solig`i stavkasini 5%dan bosqichma-bosqich 8%, keyin 10%ga ko`tarish
10,3 trln iyenaga teng “Birinchi rag`batlantirish”, 2013
4,1 trln iyenaga teng ikkinchi rag`batlantirish, 2014

3-O`Q. Iqtisodiy o`sish strategiyasi

Real Yalm hajmi 2%ga o`sishini ta`minlash
Korporativ soliq stavkasini 36%dan 30%ga tushirish
Tarkibiy islohotlarni amalga oshirish

1-rasm. “Abenomika”ning uch o`qi va ularning birlamchi “nishon”i

Манба. Муаллиф tomonidan Asia-Pacific jurnali ma`lumotlari asosida tuzildi, 2014

Bu choralar kompleksining “Abenomikaning uch o`qi” deb atalishi mashhur Yamaguti afsonasi bilan bog`liq. Afsonaga ko`ra: hukmdor uch o`g`liga bittadan kamon o`qini berib ularni sindirishni buyuradi, o`g`illar bu topshiriqni bajargach, ularga uchtadan nayza beradi va uchchallasini baravar sindirishni buyuradi. Hech qaysi o`g`il buni bajarolmaydi. Bitta o`qni sindirish – qiyin emas, ammo uchta o`q bog`lamini sindirishning iloji yo`q¹. Shunday qilib, Shindzo Abening iqtisodiy siyosati an`anaviy xarakterga ham ega. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, yuqorida sanab o`tilgan chora-tadbirlar bir vaqtning o`zida parallel ravishda amalga oshirilsa, iqtisodiy samara berishi tayin ekanligi nazarda tutilgan.

Abenomikaning asosiy tamoyillari muallifi Yel Universiteti professori Koiti Xamada bo`lib, u hozirda Abening maslahatchisi sifatida faoliyat yuritmoqda. Umuman olganda, bu uchchala “o`q”dan birinchi ikkitasi uchinchi o`q – iqtisodiy o`sish strategiyasini amalga oshirish uchun birlamchi shart-sharoitlarni hozirlashi kerakligi nazarda tutilmoqda. Eng samarali natija “uchinchi o`q”dan kutilmoqda.

1-o`q – agressiv monetar siyosat. Monetar (pul-kredit) siyosati – iqtisodiyotdagi pul massasiga ta`sir etgan holda tebranishlar asoratlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksi bo`lib, uni bevosita mamlakat Markaziy banki quyidagi uchta dastakdan foydalangan holda amalga oshiradi²:

1. Majburiy rezervlar normasini o`zgartirish
2. Qayta moliyalashtirish foiz stavkasini o`zgartirish
3. Ochiq bozor operatsiyalari

2013-yil 28-fevralda Xaruxiko Kuroda — Osiyo Taraqqiyot bankining sobiq rahbari - Yaponiya Bankining yangi boshlig`i etib tayinlanib³, yangi agressiv monetar siyosat oldiga inflyatsiyani 2% darajaga yetkazish maqsadini qo`ydi. Uning hisob-kitoblariga ko`ra bunga ikki yil vaqt ketishi kerakligi belgilab olindi (1.1-rasm). Buning uchun Yaponiya Banki (BOJ) monetar siyosatning uchinchi dastagi – ochiq bozor operatsiyalaridan foydalanishi belgilab olindi. Ya`ni milliy valyutani tinimsiz devalvatsiya qilish orqali davlat obligatsiyalarini sotib olib, muomaladagi pul massasini ikki barobar ko`paytirish rejalashtirildi. Devalvatsiya - bu milliy valyuta kursining chet el vayutasiga nisbatan tushishidir⁴. Bu esa o`z navbatida narxlar darajasida ko`tarilishni jonlantirib, iqtisodiyot uchun zarur bo`lgan inflyatsiyaga olib kelishi kerak. BOJ obligatsiyalarini ommaviy tarzda sotib olishi natijasida, mahalliy investorlar davlat obligatsiyalarini emas, kompaniyalar aksiyalarini sotib olishlari nazarda tutilar edi. Quyidagi 2-rasmda Yaponiyada moliyaviy aktivlarning joylashishi keltirilgan. Tahlil qilsak, Yaponiyada moliyaviy aktivlar ko`proq naqd pul,


¹ “Японияи Абэномика: чувством, столком” Forexp.ru (The Economist jurnalima`lumotlari asosida)

² SH. Abdullayeva, “Pul, kreditvabanklar”, darslik, Toshkent 2003, 64-bet

³ Andrew Dewit, “Disaster Risk Reduction and Resilience as Structural Reform in Abenomics”, “Asia-Pacific Journal” jurnali, 2015, yanvar

⁴ SH. Abdullayeva, “Pul, kreditvabanklar”, darslik, Toshkent 2003, 67-bet

depozitlar va fondlarda jamlangan. Aholi deflyatsiya natijasida jamg`arishga moyil bo`lib, aksiya va boshqa turdagи qimmatli qog`ozlar xarid qilishda faol emas. Bu jihat qattiq monetar siyosat uchun “nishon” qilib belgilab olindi.



2-rasm. Yaponiya moliyaviy aktivlarining joylashishi

Manbaa. August 29, 2019 Research and Statistics Department Bank of Japan

2-o`q – egiluvchan fiskal siyosat. Monetar siyosat kabi fiskal siyosat ham antisiklik choralarni nazarda tutuvchi davlat siyosati bo`lib, u davlat byudjetining harajat va daromadlar hajmini o`zgartirish vositasida iqtisodiyotdagi nobarqaorlik holatini bartaraf etishga qaratiladi. “Abenomika”ning egiluvchan fiskal siyosati eng avvalo davlat qarzlarini qisqartirishga qaratilgan. Buning uchun iste`molchilardan undiriladigan soliq stavkasini bosqichma-bosqich ko`tarib borish rejalashtirilgan.

Va nihoyat “Iqtisodiy o’sish strategiyasi” deb ataluvchi uchinchi o`q “Abenomika”ning eng keng ko`lamli islohotlari bo`lishi belgilab olingan. Bu islohotlarning asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, mamlakatda biznes faoliyati bilan shug`ullanishni yengillashtirish maqsadida korporativ soliqlar stavkasini pasaytirish;

Ikkinchidan, mamlakatda mehnat samaradorligini oshirish uchun ayollarning ishchi kuchi tarkibidagi ulushini oshirish;

Uchinchidan, chet ellik fuqarolar uchun ochiq bo`lgan yangi jamiyat yaratish;

To`rtinchidan, “Ajoyib Yaponiya” dasturini amalga oshirish. Xususan, Yaponiya madaniyatini uning taomlari, mahsulotlari vositasida xorijga yoyish, turizm sohasini viza jarayonlarini soddallashtirish yo`li bilan rivojlantirish;

Va nihoyat beshinchidan, nazorat va to`sqliarni pasaytirish. Erkin savdo Trans-Tinch okeani hamkorligiga a`zo bo`lish orqali savdoni erkinlashtirish, Yaponiyaga

то`gridan то`gri xorijiy investitsiyalar uchun to`sqliarni kamaytirish, sog`liqni saqlash, qishloq xo`jaligi kabi soahalarni isloh qilish⁵.

Fiskal siyosat oldiga har moliya yili uchun “Rag`batlantiruvchi moliyaviy vositalar” ajratilib 2018-yil uchun ular quyidagicha qiymatni tashkil etdi (1-jadval):

1-jadval

Yaponiya iqtisodiyotini jonlantirish favqulotda iqtisodiy chora-tadbirlari Dasturini amalga oshi uchun yo`naltirilgan moliyaviy mablag`lar⁶

<i>Harajatlar guruhanishi</i>	<i>Mablag`lar yo`naltirilgan soha</i>	<i>Trillion yen (taxminan)</i>	
		<i>Markaziy hukumat harajatlari</i>	<i>Jami ajratiladigan mablag`</i>
A	1. Zilziladan keyingi rekonstruksiya va tabiiy ofatni oldini olish chora-tadbirlari	3,8	5,5
	Buyuk Sharqiy Yaponiya zilzilasidan zarar ko`rgan hududlarni qayta tiklash sur`atlarini tezlashtirish	(1.6)	(1.7)
	tabiiy ofat asoratlarini susaytirish va kelgusida paydo bo`lishini oldini olish	(2.2)	(3.8)
B	2. Iqtisodiy o`sishni ta`minlash orqali milliy boylikni yaratish	3,1	12,3
	yuqori o`sish sur`atlariga erishish uchun xususiy investitsiyalarni rag`batlantirish	(1.8)	(3.2)
	kichik va o`rta biznes subyektlari, shuningdek, qishloq xo`jaligi, o`rmonchilik va baliqchilik tarmoqlarida chora-tadbirlar	(0.9)	(8.5)
	chet elda faoliyat yuritayotgan mahalliy tadbirkorlar biznesini kengaytirishini qo`llab-quvvatlash	(0.1)	(0.3)
	inson kapitalini rivojlantirish va ishsizlikka qaratilgan chora-tadbirlar	(0.3)	(0.3)
C	3. Kundalik hayotda aholi orasida xavfsizlik hissini uyg`onishini ta`minlash hamda hududlarni qayta jonlantirish	3,1	2,1
	kundalik hayot habsizligini ta`minlash	(0.8)	(0.9)
	hududlarni qayta jonlantirish	(0.9)	(1.2)
D	Mahalliy hukumat fondlariga yordam ko`rsatish va favqulotda iqtisodiy choralarini tez sur`atlarda	(1.4)	

⁵ Austin, “Three arrows of Abenomics explained”, 2014

⁶<https://www.bis.org/publ/bppdf/bispap06.pdf>

	hayotga tadbiq etilishini ta`minlash		
E	Uzoqmuddatli qurilish loyihalariga milliy subsidiylar ajratishni majburiy kafolatlash	0,3	0,3
	Iqtisodiy chora-tadbirlarga yo`naltirilgan jami mablag`lar	10,3	20,2
F	Davlat pensiyalarining 50% miqdoridagi hajmiga hukumat tomonidan kiritiladigan moliyaviy mablag`lar	2,8	
	Jami mablag`	13,1	

“Uchinchi o`q”ni amalga tadbiq etish uchta yirik reja asosida amalga oshiriladi⁷:

1-reja: Sanoatni qayta jonlantirish. Bu reja 5 ta kichik dasturlarni o`z ichiga oladi. Ular quyidagi maqsadlarga erishish uchun xizmat qiladi:

1.1. Uch yil ichida kapital investitsiyalar hajmini 10%ga o`sishini hamda xususiy investitsiyalar hajmini Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan avvalgi holatga qaytishini ta`minlash.

1.2. Besh yil ichida uzoq muddatli (6 oydan ko`p) ishsizlik darajasini 20%ga qisqartirish, ish bilan bandlik koeffisientini 7,4%dan 9%ga yetkazish; 2020-yilga kelib 25 yoshdan 44 yoshgacha bo`lgan ayollarning ish bilan bandligi darajasini joriy 68%dan 73%ga yetkazishni rag`batlantirish; Mamlakat universtitetlarining kamida 10tasining Jahon 100 taligi reytingiga kirishiga zamin yaratish (hozir 3 ta).

1.3. Besh yil ichida Raqobatbardoshlik global hisoboti (GCR)da birinchi raqamli global innovator mamlakatga aylanish.

1.4. 2019 moliya yilining ohiriga kelib ommaviy axborot ochiqligi darajasi bo`yicha jahonda eng yuqori o`rinni egallash.

1.5. Global Power City index reytingida Tokioni Top 3 talikka kiritish (hozir 3-o`rinda).

2- reja: Strategik bozorni yaratish rejasি. Bu reja esa 4 ta dasturni o`z ichiga olib ulardan ko`zlangan maqsadlar quyidagilardan iborat:

1.1. 2020-yilga kelib sog`liqni saqlash va tibbiy xizmatlar sanoati yukini kengaytirish (4 trln. iyenadan 10 trln. iyenaga yetkazish)

1.2. 2020-yilga kelib energetika texnologiyalari milliy va xalqaro savdosini 26 trln. iyenaga yetkazish (hozir 8 trln. iyena)

⁷ http://japan.kantei.go.jp/96_abe/documents/index.html

1.3. 2030-yilgacha uzatkichlar kabi ilg`or va samarador texnologiyalar vositasida eng muhim infratuzilma sohalariga texnik xizmat ko`rsatish va ularni ta`mirlash ishlarini amalga oshirish.

1.4. 2030-yilga kelib mamlakatga xorijdan tashrif buyuruvchilar yillik sonini 30 mln. nafarga yetkazish (2018-yilda 9,64 mln.)

3-reja: Global qamrov strategiyasi. Ushbu reja mamlakatning jahon hamjamiyati bilan kelgusi aloqalari asosiy yo`nalishlari hamda ularni ra`gbatlantirish istiqbollarini o`z ichiga olgan 4 ta yo`nalishdan iborat:

3.1. Iqtisodiy hamkorlikni rag`batlantirish (2018-yilga kelib erkin savdo kelishuvlari doirasidagi savdo hajmi ko`rsatkichi darajasini joriy 13%dan 70%ga yetkazildi). TPP, RCEP, Japan-China-ROK FTA and Japan-EU EPA kabi iqtisodiy hamkorlik borasidagi muzokaralar yangi bosqichga ko`tarish.

3.2. Infratuzilma sohasidagi eksportni kengaytirish (2030-yilga kelib bunday eksport jami qiymatini 30 trln. yenaga yetkazish)

3.3. Kichik va o`rta biznes subyektlarini qo`llab-quvvatlash (2020-yilga kelib bunday kompaniyalar eksporti hajmini 2010-yilgi darajadan 2 marta ko`proq darajaga yetkazish)

3.4. “Cool Japan” (“Ajoyib Yaponiya”) dasturini qo`llab-quvvatlash. (Yaponiya televidenye va radio kontentlarining xorijdagi sotuvi hajmini 2018-yilga kelib 3 marta o`sishini ta`minlandi)

Yaponiya joriy hukumatining 2014-yil 11-yanvarda e`lon qilingan “Yaponiya iqtisodiyotini jonlantirish favqulotda iqtisodiy chora-tadbirlari” Dasturi har uchchala o`q uchun birlamchi umumiy chora-tadbirlarni nazarda tutadi:

1. Buyuk Sharqiy Yaponiya zilzilasi natijasida zarar ko`rgan hududlarni qayta tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni tezlashtirish hamda tabiiy ofat ta`sirining kuchayib borishini oldini olish.

1.1. Zarar ko`rgan hududlarni qayta tiklash harakatlarini tezlashtirish va mavjud chora-tadbirlar tizimini kuchaytirish

1.2. Ijtimoiy infratuzilmaning intensiv qarib borishini yo`qotish hamda sanoat va daromadlar bazasini kuchaytirish yo`li bilan milliy infratuzilma chidamliligini oshirish.

2. Iqtisodiyot va fiskal siyosatni egiluvchan boshqarish siyosati.


2.1. Deflyatsiya kutilishini uni iloji boricha tezroq yo`q qilishga kuchli xohish hamda qat`iy mas`uliyatni belgilash vositasida yo`qotish.

2.2. Yaponiya iqtisodiyoti kelajagini qo`llab-quvvatlashda katta potensialga ega bo`lgan hamda barqaror o`sishni ta`minlaydigan sohalarga avzalliklar berish. Ayniqsa, iqtisodiyotga to`g`ridan-to`g`ri ta`sir eta oladigan va katta iste`mol talabi effektini yarata oladigan chora-tadbirlarga alohida urg`u berish.

2.3. Davlat investitsiyalarini aholi turmush va daromadini muhofaza qiluvchi, shuningdek, ma`muriy birliklar jonlanishi va o`sishini ta`minlovchi loyihalarga yo`naltirish

2.4. Yaponiya hukumati va Yaponiya Banki (BOJ) o`rtasida koordinatsiyani mustahkamlash uchun sharoit yaratish. Inflyatsiyaning aniq maqsadli darajasini ko`zlab Yaponiya Banki tomonidan monetary siyosatni keskin yumshatish.

2.5. Xorijiy valyuta ayirboshlash bozoridagi tendensiyalarni ehtiyojkorlik bilan tahlil qilish va muqobil yechimni izlash.



3-rasm. Abenomika doirasida iqtisodiy qayta tiklanish modelining ishlash mehanizmi

Izoh. Nomura Inc. iqtisodchisi Minoru Nogimori illustratsiyasi

3. Iqtisodiy o`sish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

3.1. “Jahonda biznes uchun eng do`stona mamlakat”, “Bandlik va daromad barqaror o`suvchi hamda shaxning butun potensiali to`liq namoyon etila oladigan mamlakat” konsepsiysi bilan “to`yingan” millatni yaratish. Shuningdek, “Savdoga yo`naltirilgan mamlakat” va “Sanoat investitsiyalariga yo`naltirilgan mamlakat” kabi ikki dvigatelda ishlovchi “Gibrid iqtisodiyot”ni barpo etish.

3.2. Biznes va innovatsiyalar sohasiga kiritiladigan investitsiyalarni rag`batlantirish, xorijiy bozorlarda faoliyat yurituvchi yapon kompaniyalarining kengayishiga ko`maklashish, yangi ish o`rinlari yaratish va yangi bozorlarni egallash,

inson kapitalini rivojlantirish omilini mustahkamlash va yosh avlod uchun ish o`rinlarini ko`paytirish, atrof-muhitni yaxshilash.

3.3. Yuqori o`sish potensialiga ega bo`lgan huudlar uchun dadil qonunchilik va institutsional islohotlarni amalga oshirish tizimini ishlab chiqish.

Yuqoridagi 3-rasmda “Abenomika”ning ishlash mehanizmi keltirilgan bo`lib, inflyatsiya ishlab chiqarish, kompaniyalar va oilalar daromadlari, va eng asosiysi, mamlakat ichidagi talab darajasini ko`tarishda asosiy dastak vazifasini o`tashinazarda tutilgan.

Shunday qilib, “Abenomika” Yaponiya uchun iqtisodiyotni qayta jondorish chora-tadbirlari va Bosh Vazir Shindzo Abening yangi “iqtisodiy eksperiment”i sifatida paydo bo`ldi. “Abenomika” rasman iqtisodiyot tepasiga kelganidan buyon jahoning turli iqtisodchi-analitik olimlari tomonidan bahs-munozaralarga sabab bo`lmoqda. Masalan, iqtisodiyot bo`yicha Nobel mukofoti laureati Djozef Stiglits “Project Syndicate”dagi o`z maqolasida “Abenomika” Yaponiyani jahon iqtisodiyotida “yorug`lik nuri”ga aylantirishiga ishonch bildirsa, AQShning yetakchi reyting agentliklari 2014-yil dekabr oyi boshlarida S&P va Moody`s Yaponiya iqtisodiyotiga nisbatan ishonchszlik kayfiyatida ekanliklarini namoyon qilgan⁸.

Hukumat tepasiga yangi Bosh Vazir Shindzo Abening kelishi va o`z yangi dasturi doirasida iqtisodiyotni isloh qilishni boshlaganiga ikki yil bo`ldi. Yaponiya iqtisodiyoti bu davrda erishgan iqtisodiy natijalar quyidagi 1.1-jadvalda keltirilgan:

2-jadval

“Abenomika” 2013-2018-yillar uchun asosiy iqtisodiy ko’rsatkichlarda⁹

Asosiy ko’rsatkichlar	2013-moliya yili, %	2014-moliya yili, %	2015-moliya yili, %	2016-moliya yili, %	2017-moliya yili, %	2018-moliya yili, %
Nominal YaIM hajmining o’sishi	1,8	1,7	2,7	1,1	2,4	-0,1
Real YaIM hajmining o’sishi	2,1	-0,5	1,5	0,6	1,9	1,8
Iste’mol narxlari indeksi	0,9	2,3	0,1	0,1	1,3	0,5
Ishsizlik	3,9	3,6	3,5	3,0	2,4	2,5


⁸ “Эксперты: “Абэномика” пока не принесла желаемых результатов”, www.rosbalt.ruaxborotagentligi, 2014, dekabr

⁹<https://www.ceicdata.com/en/indicator/japan/nominal-gdp-growth><https://www.ceicdata.com/en/indicator/japan/real-gdp-growth><https://www.japanmacroadvisors.com/page/category/economic-indicators/inflation-and-prices/cpi/>
<https://www.stat.go.jp/english/data/roudou/results/month/>

Abenomika siyosati mamlakat aholisining iqtisodiy holatiga ham o`z ta`sirini ko`rsatib kelmoqda. Yaponianing Sankei gazetasining 2013-yilda “Abenomika” haqidagi jamoat fikrini o`rganishga bag`ishlangan so`rovnomasini natijasiga ko`ra, mamlakat aholisining 61,2%i bu siyosatning samara keltirishiga ishonch bildirganiga qaramasdan, aholining 83,2%i bu siyosatning natijasini o`z hayotlarida sezilmayotganligini ta`kidlagan edilar¹⁰. Yangi iqtisodiy siyosatning amalga tadbiq etilganiga yetti yildan oshmagan bo`lsada, hukumat tomonidan islohotlarning faol amalga tadbiq etilishi natijasida aholi uchun vujudga kelgan effektlarni ikki guruhgaga bo`lishimiz mumkin:

1. Salbiy effekt
2. Ijobiy effekt

Salbiy ta`sir deyilganda, 2014-yil aprel oyida iste`mol solig`ining 5%dan 8% ga 2019 yil 8% dan 10% ko`tarilishi natijasida aholi soliq yukining ortishini tushunish mumkin. Soliq stavkasi 10%ga yetishi ham aholi orasida norozillik kayfiyatiga sabab bo`lmoqda. Oylik ish haqi o`sha yilning bahor oyi uchun bor yo`g`i 0,8%ga oshirilgan ekanligini inobatga olsak, bu hol aholi uchun og`ir iqtisodiy vaziyatni yuzaga keltirdi¹¹.



4-rasm. Yaponiya tashqi savdo aloqalari: mamlakat/mintaqa bo'yicha 2018-yil¹²

¹⁰И. Гостева, «Абэномика вселяет надежды» nomlimaqolasi, «Газета.ru», 2013, август

¹¹«Абэномика» наконец-то начнет работать на японцев», World Forex, 2019.10

¹²<https://oec.world/en/profile/country/jpn/>

Undan tashqari, iyena devalvatsiyasi import tovarlari narxlarining ko`tarili shiga olib keldi, natijada aholining birlamchi ehtiyoji bo`lgan go`sht, mevalar va energiya manbalari narxlari darajasi ko`tarilib, bu ham aholining turmush sharoitini qiyinlashtirdi.

Shindzo Abening yangi siyosati allaqachon xalqaro maydonda sezilmoqda. Yaponiya iqtisodiyoti uchun eksport tayanch nuqta vazifasini o`tashini hamda hozirgi siyosat ham aynan eksportning gullab yashnatayotganligini inobatga olsak, “Abenomika”ning global ta`siri birinchi navbatda savdo orqali boradi.

Ushbu rasmda Yaponiya import va eksport qiymati mamlakat va mintaqalar bo`yicha guruhlangan. Guvohi bo`lamizki, AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqi uchligi Yaponiya tashqi savdosining asosiy “manzil” nuqtalaridir.

Germaniya va Xitoy kabi eksportyor mamlakatlar global valyuta urushidan xavotirga tushib qoldilar. Bunda mamlakatlar eksport uchun yanada yaxshiroq shart-sharoitlar yaratish maqsadida o`z milliy valyutalarini qadrsizlantirish vositasida o`zaro kurash olib boradilar. Pekin va Tokiyo o`rasida Sharqiy Xitoy dengizida joylashgan Senkaku orollari borasidagi bahslar keskinlashishi iqtisodiy aloqalarga ham ta`sir etayotgan bir paytda iyena devalvatsiyasi masalani faqatgina chigallashtirmoqda.

Shu bilan birga, AQSh-Yaponiya munosabatlari Trans Tinch okeani hamkorligi (TPP) rivojlanishi bilan mustahkamlanib bormoqda. “Abenomika”ning “uchinchi o`qi” doirasidagi “Global qamrov rejasi”da nazarda tutilganidek, Yaponiya TPPga a`zo bo`lish arafasida. AQSh Osiyo bilan chuqur iqtisodiy aloqalarga kirishish tarafdir va TPP bu istakning bir qismi. AQSh uchun bu tashkilotga Yaponianing qo`shilishi har tomonlama yaxshi yangilik. Xo`sh nima uchun?

Trans-Tinch okeani hamkorligi (Trans Pacific Partnership, TPP) – tuzilishi rejalahtirilayotgan xalqaro iqtisodiy tashkilot bo`lib, uning asosiy maqsadi Osiyo-Tinch okeani mintaqasida erkin savdo zonasini barpo etish sanaladi. Bu tashkilotni tuzish taklifi 2003-yilda Yangi Zellandiya, Singapur va Chili tomonidan kiritilgan bo`lib, 2005-yilda ularga Bruney ham qo`shildi.¹³ Bu to`rtta mamlakat TPPning asosiy tashkilotchilari bo`lib, qolgan to`qqizta mamlakat (AQSh, Avstraliya, Peru, Vietnam, Malayziya, Meksika, Kanada, Yaponiya, Tayvan) ishtirok etish shartlari to`grisida muzokaralar olib borib, Yaponiya 2013-yil mart oyida ushbu tashkilotga a`z obo`lish istagini bildirdi¹⁴.

Ushbu tahkilot asosini tashkil etuvchi Kelishuv intelektual mulk huquqi ximoyasi, qishloq xo`jaligi, telekommunikatsiyalar, moliyaviy xizmatlar, bojxona hamkorligi va

¹³ Б. С. Загашвили, «О переговорах в рамках Транс-тихоокеанского партнёрства», <http://www.imemo.ru>, 2013

¹⁴ Yasuyuki Todo, “Estimating the effect of the TPP on Japan’s growth”, www.vox.com, 2013, mart

tariflar, o`zaro investitsiyalar kabi masalalar doirasini tartibga solishga xizmat qilishi ko`zda tutilmoxda¹⁵.

Shindzo Abe siyosatining eng yorqin nuqtasi ham bu tashkilotga a`zo bo`lishini ma`lum qilganligi bo`ldi. Yaponiya unga a`zo bo`lishni kechiktirib kelayotganining asosiy sababi – qishloq xo`jaligi edi. Iqtisodiyot uchun bu tarmoq doimiy proteksionizm bilan ximoya qilinib kelingan, TPPga a`zolik esa barcha tarif to`sislarning olib tashlanishini nazarda tutadi. Yaponiya qishloq xo`jaligi sektori kattaligi bo`yicha TPP mintaqasida ikkinchi o`rinni egallaydi. Bu tarmoq mahsulotlari narxlari jahon standartlariga ko`ra yuqori sanaladi¹⁶.

“Abenomika” ko`plab iqtisodchi-analitik olimlar tomonidan iqtisodiy “eksperiment” deb ham atalmoqda. Ular bu siyosat iqtisodiyot uchun o`ta qaltis vaziyatda amalga oshirilayotganligini ta`kidlab, bir qator risk omillar mavjudligini alohida aytib o`tmoqdalar. Biz ulardan eng asosiylarini ko`rib chiqamiz.

1. Iyena devalvatsiyasi hisobiga inflyatsiyani keltirib chiqarish keyinchalik giperinflyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin.

2. Davlat byudjeti harajatlarining oshirib borilayotgani aholi soliq yukining ortishiga sabab bo`lishi mumkin

3. Eksportning davlat tomonidan iyena qadrini tushirish hisobiga qo`llab-quvvatlanishi boshqa eksportyor mamlakatlar tomonidan Yaponiya eksportiga iqtisodiy choralar qo`llanishiga olib kelishi mumkin.

4. Trans-Tinch okeani hamkorligiga a`zo bo`lish qishloq xo`jaligida katta salbiy o`zgarishlarga olib kelishi mumkin. Sababi mamlakat iqtisodiyoti oziq-ovqat mahsulotlarining 61%ini import qilishi bilan bir qatorda, qishloq xo`jaligi sohasida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni ximoya qilishda proteksionizm siyosatini doimiy qo`llab kelgan. Xususan, go`sht va go`sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, shakar, kraxmal kabi oziq-ovqat mahsulotlariga 21,5%dan 40%gacha import bojlari qo`llasa, guruch, bug`doy, makkajo`xori kukuni kabilarga import kvotalarini qo`llaydi¹⁷. Bu iqtisodiy tashkilotga a`zo bo`lish natijasida qishloq xo`jaligi yetishtiradigan mahsulot aylanmasi joriy 7,1 trln. iyena 3 trln. iyenaga qisqarishi mumkin¹⁸. Bu ayniqla guruch importining oshib ketishini bildiradi. Bu qo`shilishga hozirgi hukumatning muxolifat siyosiy partiyalaridan tortib Qishloq xo`jaligi koperativlarigacha qarshi chiqishmoqda. Ayniqla qishloq xo`jaligida band bo`lgan

¹⁵ «Соглашение о Транс-Тихоокеанском Сотрудничестве», www.lexdigital.ru/2012/064/


¹⁶ Jon Dik, Shon S. Arita, «Japan’s Agri-Food Sector and the Trans-Pacific Partnership», USDA, 129-iqtisodiy axborotbulleteni, 2014, 1-bet

¹⁷ Jon Dik, Shon S. Arita, «Japan’s Agri-Food Sector and the Trans-Pacific Partnership», USDA, 129-iqtisodiy axborotbulleteni, 2014, 7-bet

¹⁸ Tetsuya Yamada “Японияи Транс-Тихоокеанскому партнерство”, TPP 交渉 7 月参加へ、進む地ならし, 2013

aholi yoshining qarib borayotgani¹⁹. Yaponiya joriy hukumati ham bu sohalardagi to`siqlarni saqlab qolish uchun to`xtovsiz muzokaralar olib bormoqda.

“Abenomika” iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, qo`llab-quvvatlash, isloh qilish dastak-vositalari bo`lib, bu keng ko`lamli ishlarni amalga oshirish va kutilgan natijaga erishish uchun xususiy sektor bilan birgalikda ish olib borishi lozim. Yaponiya iqtisodiyotining xususiy sektor subyektlari joriy holatini tahlil qilar ekanmiz, aynan shu sohani isloh qilish zarurati va ularda rivojlanish, yangi daromad manbalariga ega bo`lish potensiallari mavjudligini ko`ramiz. Yangi iqtisodiy yo`nalishning samaradorligi garovi sifatida xususiy sektor – “Abenomika”ning “to`rtinchi o`qi” bo`lishi kerak.



5-rasm. Yaponiya yuqori texnologik ishlab chiqarish sohasi tovarlarining ichki va tashqi bozorlardagi ulushi

Manbaa. Mc Kinsey Global Institute

McKinsey Global Institutining 2017-yil mart oyida chop etilgan “The Future of Japan: Reigniting Productivity And Growth” (“Yaponiya kelajagi: o'sish va samaradorlikni yanada oshirish”) nomli tadqiqoti hisobotida Yaponiya xususiy sektorini bat afsil o'rGANIB, uning rivojlanish imkoniyatlarini alohida ajratib o'tadi. Tadqiqot natijalari shuni ko`rsatdiki, so`nggi yigirma yilda ishlab chiqarish yalpi

¹⁹ I-bob, 1-paragraf, 17-bet

samaradorligi ikki foizdan oshmagan²⁰. Bu ko`rsatkich boshqa ilg`or mamlakatlar bilan taqqoslanganda juda past. Ayrim xususiy sektor tarmoqlari hali o`z potensialini to`liq namoyon etmagan:

1. Ilg`or texnologik ishlab chiqarish (avtomobilsozlik, sanoat asbob- uskunalar, elektronika)
2. Chakana savdo
3. Moliyaviy xizmatlar
4. Sog`liqni saqlash

Bu sohalar holatini tahlil qilsak. Ilgo`r texnologik ishlab chiqarish mahsulotlaridan faqatgina avtomobillar rivojlanayotgan bozorlarga ixtisoslashgan, qolganlari esa tez o`sib boruvchi bozorlar, daromadi pastroq iste`molchilarga yo`nalmagan (5-rasm). Ikkinchidan, bozordagi talab dasturiy ta`minot, axborot texnologiyalari xizmatlari, mobil dasturlarga o`tgan bo`lsada, Yaponiya elektronika sohasi hali ham uskunaviy ta`minot bilan band. Uchinchidan, Yaponiya boshqa mamlakatlarga nisbatan ishlab chiqarishdagi R&Dga ko`p mablag` sarflaydi. Ammo bu investitsiyalar yangi mahsulot ko`rinishida o`z natijalarini berayotgani yo`q. To`rtinchidan esa Yaponiya mehnat bilan bog`liq bo`lmagan yuqori harajatlar darajasi bilan kurashmog`i kerak.

Chakana Savdo. Yaponiya chakana savdo sohasi yaxshi yo`lga qo`yilgan logistika, katta iste`mol bazasidan yaxshi daromad ko`radi. Yuqori tezlikdagi internet va mobil aloqa online shopping rivojlanishi uchun poydevor bo`lib xizmat qildi²¹. Ammo chakana savdoning qariyb yarmini tashkil etuvchi oilalarga tegishli kichik do`konlar samaradorligi juda past. Bu esa butun sektorni orqaga tortmoqda. Yaponiya chakana savdo subyektlarining bor yo`g`i 40%igina milliy savdo liderlari 10 taligiga kiradi xolos. Bu ko`rsatkich Buyuk Britaniya va Germaniyada mos ravishda 76% va 75%ni tashkil etadi.

Yuqorida “Abenomika” siyosatining muvaffaqiyatsiz yakunlanishiga sabab bo`luvchi risklar hamda hozirgi islohotlar samaradorligini yanada oshirishning yangi yo`llari tahlil qilindi. Xususiy sektor islohotlari, Mahalliy investitsiya ishonch fondlari, shuningdek, turizm sohasi “Abenomika” uchun yangi marralarga erishishning yaxshi usuliga aylanadi.

²⁰Amorós, José Ernesto, and NielsBosma, 2018 global report, Global Entrepreneurship Monitor, January 2018.

²¹ McKinsey Global Institute, China’s e-tail revolution: Online shopping as a catalyst for growth, March 2013.